



BANKLAR ORQALI TURISTIK SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH: MEXANIZMLAR VA SAMARADORLIK TAHLILI

Kamalova J.

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Turizm sohasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim strategik yo'nalishlardan biri bo'lib, mamlakatlar uchun nafaqat daromad manbai, balki ish o'rinlari yaratish, madaniy merosni saqlash va xalqaro reytinglarni yuksaltirish vositasi hisoblanadi. Turizmning barqaror rivojlanishi va yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etish asosan moliyaviy resurslarga bog'liq. Shu bois turistik tashkilotlarning samarali faoliyatini ta'minlashda bank institutlari va moliyalashtirish mexanizmlari asosiy rol o'ynaydi.

Banklar orqali moliyalashtirish nafaqat kapital jalb qilish, balki turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi loyihalarni amalga oshirish va xususiy sektorning ishtirokini rag'batlantirish imkonini beradi. Shuningdek, kreditlar, investitsiya dasturlari va maxsus moliyaviy instrumentlar orqali turistik sohada barqarorlik va samaradorlikni oshirish mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xizmatlar sohasi jadal rivojlanib, turizm, axborot texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, transport va logistika, ta'lim va tibbiyot sohalarida eksport salohiyati yuqori darajada oshmoqda.

Xususan, 2024-yilda respublikaga tashrif buyurgan sayyohlar soni 2023-yilga nisbatan 20 foizga ko'payib, **8 mln** nafarga yetdi. Shuningdek, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot texnologiyalari xizmatlari eksporti 1,4 barobarga oshdi. Jami xizmatlar eksportining **49** foizi sayohatlar, **33** foizi transport va **18** foizi boshqa xizmatlar eksportiga to'g'ri keldi.

Hisobot davrida O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar sonining ortishi natijasida turizm bilan bog'liq xizmatlar eksporti 2023-yilga nisbatan **48** foizga ko'payib, **3,2 mlrd** dollarga yetdi.

Turizm faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklari tomonidan **5 771 ta** tadbirkorlik subyektiga **4,6 trln** so'mdan ortiq kreditlar ajratildi. Ushbu ajratilgan kreditlarning **1,5 trln** so'mi – mehmonxonalar faoliyatini rivojlantirish, **1 022,7 mlrd** so'mi – restoranlar faoliyati, **812,8 mlrd** so'mi – yo'lovchi tashish xizmatlariga, **522,6 mlrd** so'mi – turistik agentlik va oromgohlar faoliyati hamda **62,1 mlrd** so'mi – sport va sog'lomlashtirish turizmi uchun yo'naltirilgan.

2024-yilda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarning loyihalarini moliyalashtirishga xorijiy kredit liniyalari resurslaridan ham keng foydalanildi. Respublika bo'yicha jami 26,7 mingga yaqin loyihalar uchun 3,3 mlrd dollarlik

kreditlar yoʻnaltirildi. Ushbu resurslarning 1,2 mlrd dollar miqdoridagi qismi kichik va oʻrta tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish uchun ajratildi.

2024-yilda xorijiy kredit liniyalari mablagʻlari hisobidan canoatga 2 138,3 mln, cavdo va umumiy ovqatlanish sohalariga 387,7 mln, xizmat koʻrsatishga 290,4 mln, qishloq xoʻjaligiga 190,4 mln dollar, transportga 188,5 mln, qurilishga 139,8 mln va aloqaga 3,4 mln dollar yoʻnaltirildi¹.

Turistik tashkilotlar faoliyatini moliyaviy qoʻllab-quvvatlashning asosiy manbalaridan biri bu banklar tomonidan taqdim etiladigan kreditlari va tashkilotlarga qilingan investitsiyalari hisoblanadi. Turistik tashkilotlarning kreditga layoqatlilik darajasini aniqlash uslubini takomillashtirish bugungi kundagi eng asosiy muammolardan biri hisoblanib,

Mijozlarning kreditga layoqatliligi deb xoʻjalik subʼektining kreditni oʻz vaqtida va toʻliq qaytarishga qodirligiga aytiladi.

Xoʻjalik subʼektlarining kreditga layoqatliligi bir qancha koʻrsatkichlar bilan tavsiflanadi. Odatda, koʻrsatkichlar soni cheklanmaydi va har bitta filial tomonidan xizmat koʻrsatilayotgan mijozlar faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda belgilanadi.

Mazkur metodikada kreditga layoqatlilikning zarur majburiy koʻrsatkichlari koʻrib chiqiladi: qoplash va likvidlik koeffitsientlari, oʻz mablagʻlari bilan taʼminlanganlik (avtonomiya koeffitsienti), oʻz aylanma mablagʻlari mavjudligi dinamikasi.

Shuningdek qoʻshimcha koʻrsatkichlarni ham hisoblash tavsiya etiladi: aylanma mablagʻlarning aylanishi, rentabellik va b.

Kreditga layoqatlilikni baholash xoʻjalik subʼektining balansi, foyda va zararlar toʻgʻrisidagi hisobotini tahlili qilish asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, zarur hollarda kreditga layoqatlilikni baholashda davlat statistika organlarining maʼlumotlari, Bankning oʻz jadvallari va tahliliy materiallari va boshqalardan foydalaniladi.

Kreditga layoqatlilikning asosiy koʻrsatkichlari quyidagi koeffitsientlar hisoblanadi:

1) Qoplash koeffitsienti

$$QK = \frac{LM}{QMM}$$

bu yerda:

QK – qoplash koeffitsienti

LM – qisqa muddatli likvid mablagʻlar

QMM - qisqa muddatli majburiyatlar.

Mazkur koeffitsient turistik tashkilotlarning majburiyatlarini oʻz vaqtida bajara olish imkoniyati koʻrsatadi va qanchalik yuqori natijasni qayd etsa, shunchalik moliyaviy holati barqaror boʻladi. Bunda qisqa muddatli likvid mablagʻlarga (QMM) quyidagilar kiradi:

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisoboti (<https://cbu.uz/oz/publications/annual-report>)

1. *Pul mablag'lari (PM)*. Bu mablag'lar kassadagi pul mablag'lari, hisobvarag'idagi pul mablag'lari, xorijiy valyutadagi pul mablag'lari va boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlardan ibo-rat bo'lib, likvidlik darajasi yuqori bo'ladi.

2. *Tez sotiladigan talablar (TST)*. Mazkur toifaga sotib oluvchilar va buyurtmachilarning qarzdorligi, shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarining qarzdorligi, xodimlarga berilgan avanslar, yetkazib beruvchilar va pudratchilarga avanslar (3 oydan ortiq bo'lmagan muddatga), byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha avans to'lovlari, davlat maqsadli fondlariga va sug'urta bo'yicha avans to'lovlarini kiritish mumkin. Shuningdek, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzdorligi, boshqa (qaytarilishi bo'yicha real) debitorlik qarzdorligi va qisqa muddatli investitsiyalar (qaytarish muddati faqat 3 oygacha bo'lgan qo'yilmalar hisobga olinadi)ni ham o'zi ichiga oladi.

3. *Tez sotiladigan zaxiralar (TSZ)*. Mazkur ko'rsatkich 3 ta manbadan iborat: ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulot va tovarlar.

Keltirilgan formulaning maxrajidagi qisqa muddatli majburiyatlar esa quyidagilardan tashkil topgan: sotib oluvchilar va buyurtmachilar oldidagi qarzdorlik, shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlari oldidagi qarzdorlik, kechiktirilgan daromadlar, soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar, boshqa kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik, sug'urta bo'yicha qarzdorlik, davlat maqsadli fondlariga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik, ta'sislar oldidagi qarzdorlik, mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzdorlik, qisqa muddatli bank kreditlari, qisqa muddatli qarzlar, uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi va boshqa kreditorlik qarzdorligi.

Yuqorida bayon qilinganlarni hisobga olgan holda:

Agar qisqa muddatli likvid mablag'lar (LM) qisqa muddatli majburiyatlardan (QMM) kamida ikki barobar ortiq bo'lsa (ya'ni $KP \geq 2$), xo'jalik sub'ektining moliyaviy ahvolini yaxshi deb hisoblash mumkin. Bu eng yuqori mezoniy chegara. Quyi chegara sifatida esa xo'jalik sub'ektining qisqa muddatli likvid mablag'larga (LM) teng miqdordagi qisqa muddatli majburiyatlarga (QMM) ega bo'lgan holat olinadi (ya'ni $KP=1$).

Shu bilan birga, xo'jalik sub'ektlarining ishlab chiqarish xarakteri, aktivlar tuzilmasi kabi omillari, qoplash ko'rsatkichi bilan tavsiflanadigan korxona balansining haqiqiy likvidlik holatini biroz buzib ko'rsatishi mumkin.

2) Likvidlik koeffitsienti

Turli omillarning ta'sirini kamaytirish uchun xo'jalik sub'ektlari balansining **likvidlik ko'rsatkichi** hisoblab chiqiladi. Ushbu ko'rsatkich pul mablag'lari va tez sotiladigan talablar summasining qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadi, ya'ni tovar-moddiy boyliklar zaxiralari inobatga olinmaydi va faqat real likvid aktivlar hisoblanadi. U quyidagicha hisoblanadi:

$$LK = \frac{PM + TST}{QMM}$$

bu yerda:

LK – likvidlik koeffitsienti

PM – pul mablag'lari

TST – tez sotiladigan talablar

QMM - qisqa muddatli majburiyatlar.

Likvidlik koeffitsienti joriy majburiyatlarning qaysi qismi nafaqat naqd pullar, balki jo'natilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun kutilayotgan tushumlar hisobidan qoplanishi mumkinligini ko'rsatadi.

3) Avtonomiya koeffitsienti

Xo'jalik sub'ektlarining o'z mablag' manbalari bilan ta'minlanganligi (yoki avtonomiya koeffitsienti (AK)) korxona balans passivida o'z manbalari ulushini hisoblab chiqarish yo'li bilan baholanadi va korxonaning qarz mablag'lariga qaram emasligini, ya'ni undan mustaqil ekanligini aks ettiradi.

O'z mablag' manbalari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$AK = \frac{O'M \text{ (o'z mablag' manbalari)}}{BV \text{ (balans valyutasi)}}$$

bu yerda:

AK – avtonomiya koeffitsienti

O'M = (Passivning birinchi bo'limi jami, "O'z mablag' manbalari") - Ta'sischilarning ustav sarmoyasi bo'yicha qarzдорligi

BV = Jami passiv - nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati

Korxonaning o'z mablag' manbalari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti 30 foizdan kam bo'lishi mumkin emas. Aylanma mablag'larning aylanishi yuqori bo'lgan holda va korxonaning faoliyat xususiyatiga bog'liq holda ushbu ko'rsatkichning ruxsat etilgan darajasi biroz kichik bo'lishi mumkin.

Agar ushbu koeffitsient 0,6, ya'ni 60 foizdan yuqori bo'lsa, kredit xatari minimumga keltirilgan deb hisoblanadi.

Bundan tashqari xalqaro amaliyotda turistik tashkilotlar faoliyatini baholash, uning samaradorligini aniqlash hamda ularni moliyalashtirish jarayonida bir qator qo'shimcha moliyaviy ko'rsatkichlarga ham e'tibor qaratadi. Chunki ushbu ko'rsatkichlar turistik tashkilotlarning bevosita joriy moliyaviy holatini aks ettiradi.

1-jadval.

Turistik tashkilotlarning kreditga layoqatlilik darajasini aniqlashda foydalaniladigan moliyaviy ko'rsatkichlari²

Ko'rsatkich nomi	Tavsifi	Hisoblash usuli / formula	Samarasi / ahamiyati
Daromad va foyda darajasi	Turistik xizmatlardan olinadigan sof daromad va foyda	Foyda = Daromad – Xarajatlar	Daromad barqarorligi kreditni to'lash qobiliyatini ko'rsatadi
Aktivlar va kapital miqdori	Tashkilotdagi moddiy va no-moddiy aktivlar, ustav kapitali	Qiymat = Mulk + Jihozlar + Investitsiyalar	Kapital qoplamasi yuqori bo'lsa, qarz xavfi kamayadi
Qarz yuklamasi va qarzlik koeffitsiyenti	Mavjud qarzlar va ularning nisbati	Debt-to-Equity Ratio = Jalb qilingan qarz / Aktivlar kapitali	Qarz yuklamasi yuqori bo'lsa, kredit xavfi oshadi

² Eugene F. Brigham, & Joel F. Houston. (2022). *Fundamentals of financial management* (16th ed.). Boston, MA: Cengage Learning.

Naqd pul oqimi (Cash Flow)	Turizm faoliyatidan keladigan naqd mablag'lar	$DSCR = \text{Naqd pul oqimi} / \text{Qarz bo'yicha to'lovlar}$	$DSCR > 1 \rightarrow \text{qarz to'lash imkoniyati bor}$
---------------------------------------	---	---	---

Turistik tashkilotlarni moliyalashtirishda kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari asosiy ahamiyatga ega bo'lib, ular banklar tomonidan qarz berishda xavfni baholash va qaror qabul qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Moliyaviy ko'rsatkichlar — daromad va foyda darajasi, aktivlar va kapital miqdori, qarz yuklamasi va naqd pul oqimi — tashkilotning qarzni o'z vaqtida va to'liq qoplash qobiliyatini aniqlaydi.

Shu bilan birga, huquqiy va tashkilotchilik ko'rsatkichlari — litsenziyalar, faoliyat davri, rahbariyat tajribasi va biznes rejasi — kredit berish jarayonida ishonchli signal vazifasini o'taydi. Kreditga layoqatlilikning to'liq baholashi turizm loyihalari uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investitsiyalarni samarali taqsimlash va bank xavfini kamaytirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, turistik tashkilotlarning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini to'liq va tizimli tahlil qilish — turizm sohasida barqaror rivojlanish, sifatli xizmat va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.